

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.
Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

X.Mamajonov

Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning manbashunosligiga doir ayrim fikr-mulohazalar 113

ADABIYOTSHUNOSLIK

X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova

Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari 118

A.Abduraxmonov

Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati 122

B.To'rayeva

Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari 127

N.Karimova

Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi 134

P.Ro'ziboyeva, B.Karimov

Abdulhamid Cho'lpon hikoyalarida ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi 138

N.Avazov

"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi..... 143

Sh.Axmedova

Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari..... 151

N.Soatova

Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati 155

Sh.Turg'unov

Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida 162

TILSHUNOSLIK

Sh.Iskandarova, F.Musayeva

Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir..... 168

D.Ganiyeva

Turli tizimdagi tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunksionalligi..... 171

Sh.Amonturdiyeva

Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari..... 176

N.Xoshimova

Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi..... 184

M.Hojiyeva

Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning asosi sifatida..... 187

V.Giyosova

Bolalarga oid murojaat birliklariga doir mulohazalar 190

S.Ahmadaliyeva

Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida..... 193

H.Saipova

Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari 197

MATEMATIKA

T.Ergashev, D.Urinboyeva

Ikkinchi tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida..... 201

B.Kadirkulov, M.Jalilov

Involutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagi tenglama uchun qo'yilgan teskari masala 209

N.Murolimova

Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lqin tenglamasi uchun chegaraviy masala..... 214

FIZIKA - TEXNIKA

X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov

Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish 223

M.Abdullayeva, Sh.Shuxratov

Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishni pedagogik-psixologik imkoniyatlari..... 228

XRONOTOP POETIKASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ПОЭТИКИ ХРОНОТОПА

FEATURES OF THE POETICS OF THE CHRONOTOPE

To'raeva Bahor Bahriddinova¹¹To'raeva Bahor Bahriddinova– Dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.**Annotatsiya**

Maqolada adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biri xronotopning badiiy-funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Xronotop olam va odam munosabatlarini tasvirlashda, qahramon qalbidagi kechinma, iztirob, uning o'zigagina tegishli ruhiyat manzaralarining eng chuqur o'zanlarini to'liq his qilishda, yozuvchining badiiy-g'oyaviy maqsadini ifodalashda hamda asarning mazmun va shaklini ochishda xizmat qiladi. U ijodkor uslubining o'ziga xos jihatlarini belgilab, milliy fikrlash tarzini aks ettiradi. Xronotop janr va syujetni tashkil etib, asarning ichki izchilligini mustahkamlaydi. Zamon va makon kategoriyasi umumlashtiruvchi vazifa bajaradi.

Аннотация

В статье анализируются литературоведческие и функциональные особенности хронотопа, одной из актуальных проблем литературоведения. Хронотоп служит для описания взаимоотношений мира и человека, полного переживания глубины душевных переживаний героя, выражения художественно-мировоззренческого замысла писателя, раскрытия содержания и формы произведения. Он подчеркивает отличительные черты творческого стиля и отражает национальный образ мышления. Хронотоп усиливает внутреннюю целостность произведения, формируя жанр и сюжет. Категория времени и пространства выполняет обобщающую функцию.

Abstract

The article analyzes the literary and functional features of the chronotope, one of the current problems of literary criticism. The chronotope serves to describe the relationship between the world and man, fully experience the depths of the hero's emotional experiences, express the writer's literary and ideological purpose, and reveal the content and form of the work. It highlights the distinctive features of the creative style and reflects the national way of thinking. The chronotope reinforces the internal consistency of the work, forming a genre and a plot. The category of time and space does a generalizing function.

Kalit so'zlar: xronotop, badiiy zamon, badiiy makon, zamon-makon dialektikasi, mikroolam, makroolam, megaolam xronotopi, real, ijtimoiy, psixologik, milliy, fantastik xronotop.

Ключевые слова: хронотоп, художественное время, художественное пространство, диалектика времени и пространства, микро, макро, мегахронотоп, реальный, социальный, психологический, национальный, фантастический хронотоп.

Key words: chronotope, literary time, literary space, dialectics of time and space, micro, macro, megachronotope, real, social, psychological, national, fantastic chronotope.

KIRISH

Nisbiylik nazariyasiga ko'ra, zamon o'z-o'zicha materiyadan ajralgan holda mavjud bo'lmasdan, balki u bilan universal aloqada bo'lib, makonning nisbiy jihatlarini sifatida ro'y berishi mumkin. Zamon-makon chambarchasligi, *birinchidan*, ularning har qanday mavjudlikning asosiy shakllaridan ekanligida, zamon o'z-o'zicha moddiy o'zgarishlardan ayri holda mavjud bo'lmasligida, *ikkinchidan*, uzluksizlik kasb etmaydigan, o'tmishdan kelajakka o'zgarmaydigan moddiy tizim va jarayonlar bo'lmasligida. Badiiy asar dunyosini o'rganish jarayonida zamon va makonning «ajralmasligi» va «qo'shilib ketishi» qonuniyati buzilib, shartli ravishda bu ikki kategoriya alohidalik kasb etadi. Bunday shartli bo'linishning qonuniyligini bir qator tadqiqotchilar quyidagicha izohlashadi: «Faqat badiiy mantiq tufayli makon va zamon alohida ifodalanadi, ondagi mavjudlik shakli, yozuvchilarning tasvirlash uslubi buni taqozo etadi. San'at moddiy voqelikning o'zi emas, balki uning intihosi, obrazli modelidir. Zarurat tug'ilganda, badiiy niyat zamon-makonning real, moddiy birligini buzishga qodir. Materiyaga nisbatan qayd etilgan zamon-makon dialektikasi (ularning birligi va mustaqilligi), shuningdek, ushbu kategoriyalarning har birini alohida ko'rib chiqishning mohiyati badiiy zamon va makon diskretligi bilan bevosita bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jahon adabiyotshunosligida badiiy zamon va badiiy makon muammosining ilmiy-nazariy muammolari Yevropa (H.Meyerhof, A.James, W.Heffernan, A.Rodriguez, M.Vukanovićand, L.Grmuša, N.Bemong, P.Borghart, J.Culler, M.Atkins), rus (M.Baxtin, D.Lixachev, N.Gey, N.Shutaya, A.Nikolaev, Z.Turaeva, B.Meylax, Ye.Meletinskiy, V.Xalizev) va o'zbek (N.Shodiyev, H.Boltaboyev, E.Abutaliyeva,

U.Jo'raqulov, B.Karimov, D.Quronov, A.To'ychiev, G'.Murodov, A.Nosirov, A.To'ychiyev, S.Mirzayeva, K.Qodirov, M.Umarova, U.Qarshibayeva, O'.Nazarov, D.Xursanov) olimlarining tadqiqotlarida yoritilgan. Jumladan, H.Meergofning «Adabiyotda zamon» kitobida Marsel Prust, Djems Djons, Tomas Mann va Tomas Vulflarning asarlarida xronotopning falsafiy muammolari qanday qo'yilganligi va ijodiy-individual yechimi umumlashtirilgan bo'lsa, M.Vukanovićand, L.Grmuša tadqiqotlarida romanda xronotop, epik makon va epik zamon munosabatlarining ichki o'ziga xos bog'liqliklari nazariy-tahliliy o'rganilgan. D.Lixachev qadim rus adabiyotida badiiy zamon poetikasi, epik zamonning sub'ektiv aspektlarini, M.Baxtin badiiy o'zlashtirilgan zamon va makonning estetik o'zaro aloqadorligini, ya'ni badiiy asarda zamon belgilarining makonda namoyon bo'lishi, makondagi narsa-predmetlar zamonda idrok etilishini ilmiy-nazariy tadqiq etishgan.

NATIJALAR

Zamon-makon dialektikasining bunday konseptualligi badiiy zamon va badiiy makonni san'atkor tasvirlayotgan olamning ajralmas uzviy tarkibi, deb qarashga o'rgatadi. Adabiyotda ajralmas bu tarkib xronotop, ya'ni zamon va makonni badiiy o'zlashtirish usuli[3, 142], deb ataladi. Badiiy zamon va badiiy makon ham uzluksizdir. Bu, ayniqsa, badiiy zamonga nisbatan muhim. Chunki adabiyot butun bir zamon oqimini tasvirlamaydi, balki undan, ijodiy niyatidan kelib chiqqani holda, muallif muhim qismlarigina tanlaydi, xolos («bo'sh» *oraliqlar «uzoqmi, yaqinmi», «oradan yillar o'tdi»* kabi grammatik ifodalar bilan qayd etiladi). Zamonning bunday uzluksizligi, avvalo, asar syujeti rivojining, pirovard-oqibatda esa psixologizm chuqurlashishining kuchli vositasi bo'lib xizmat qiladi. Badiiy makonning bo'lak-bo'lak «parchalanganligi» qisman badiiy zamonning xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, qisman esa mustaqil xarakterga ega bo'ladi. Zero, badiiy adabiyot uchun zamon va makon koordinatalarining oniy lahzada o'zgarib, almashinib turishi tabiiy. Ch.Aytmatov va N.Norqobilov romanlarida badiiy zamon va makon tizimli ifodalanmaydi, voqealar qahramonning ruhiy holatiga asoslangan holda o'tmish, hozir va kelajakka almashinadi. Xronotopning diskretikligi (zamonlar va makonlar almashinuvi) shundaki, badiiy asar borliqning faqat muayyan qismlarini tasvirlaydi. Shu bilan birga, zamon va makon hajmi muallifning ijodiy niyati asosida belgilanadi: Edigey Bo'ron xotiralar daryosida g'arq bo'lgan pallada to'satdan voqealar koinotda sodir bo'layotgan hodisalarga almashinadi. Bu, albatta, kitobxondan ziyraklik talab qiladi. Avdiy Kallistratovning Xudo-Zamondosh haqidagi xayollari Iso Masihning Xudo-Erta to'g'risidagi ilohiy g'oyalari bilan tutashadi, keyin voqealar silsilasi Bo'ston va Bozorboy munosabatlariga ko'chiriladi – bularning hammasini Akbara va Toshchaynar syujet chizig'i o'zida qamraydi. Arsen Samanchin ruhiyatidagi evrilishlar Jaabarsda teranlashadi. Ermanning bandilikdagi achchiq qismati tinch va osuda hayotiga doim soya soladi, chunki uni azobli taqdirga ro'para qilgan Itolmasni mahv etish ilinjida yashaydi. Yoshlik kezlari hukumat qarori tufayli Farmonov Eshqul polvon bilan ziddiyatga kirishgan bo'lsa, keksaligida Farmonovning o'g'li Sa'dulla betayin gap-so'zi va xatti-harakati bilan uni azoblaydi. «Qoraquyun»da esa voqealar tizimida insonlar va itlar taqdiri, «Dashtu dalalarda» romanida xronotop insonlar va bo'rilar hayoti parallelligida ifodalanadi, tush tasvrida evrilish (metamorfoza) xronotopi asosida bo'ring odamga aylanish holatlari ham kuzatiladi.

Roman voqealarining dramatik hamda psixologik tarangligi (Edigey – Abutolib – Zarifa; Avdiy – Iso Masih – Bozorboy, Akbara – Toshchaynar; Arsen – Oydana – Eles, Arsen – Jaabars; Andrey Krilsov – Runa Lopatina, Filofey – Robert Bork – Entoni Yunger; Erman – Itolmas; Eshqul – Farmonov – Sa'dulla, Eshqul – O'sarqul) natijasida nafaqat zamon va makonda kechgan voqealar, balki qahramonlarning munosabatlari bilan bog'liq mikro-xronotopni ham kitobxon tasavvur qilib boraveradi.

Badiiy olamni zamon-makon jihatdan tashkil etish – modellashtirishning turli shakllari ularning shartlilik xarakteriga bog'liq. Zero, san'atning barcha turlarida tasvirning shartlilik voqelikni badiiy o'zlashtirishning asosi hisoblanadi. Bu badiiy zamon va badiiy makonga ham daxldor: adabiy qahramonning butun bir hayoti tasviri atigi bir kun doirasi bilan cheklanishi, ba'zan bir kun asrga tatishi mumkin va h.k.

Har qanday estetik faoliyat kabi xronotop tasvirining shartlilik insonning hissiy-hayajon tajribasiga asoslanadi. Har bir ijodkorning xronotopni qabul qilishi esa mutlaqo subyektivdir: zamon oniy lahzada zich tig'izlashishi, qisqa yoxud uzoq davom etishi, shiddatli, uzluksiz kechishi mumkin. Badiiy zamon hech qachon real astronomik zamonga to'g'ri kelmaydi, chunki badiiy zamon to'xtashi, ortga qaytishi, oldinga ketib qolishi mumkin. Bu esa yozuvchining ijodiy niyatidan kelib chiquvchi usullardir. «Zamon zich tig'izlashishi, cho'zilishi, to'xtashi va ortga qaytishi mumkin, – deb ta'kidlaydi M.S. Kogan. – ... Ana shu asosda badiiy shartlilik, deb atalmish badiiy shakl bilan real shakl o'rtasidagi masofa yuzaga keladi». Zamon o'zgarishi, albatta, makonga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Badiiy ijodda zamon va makonning o'lchamlari shartli tarzda o'zgarib turadi. «Zamon siqilishi va uzayishi, to'xtashi va ortga qaytishi mumkin. Shu kabi munosabatlar qorishib ketishi, turli usullar vositasida

ADABIYOTSHUNOSLIK

o'zgarishi mumkin. Shu asosda real shakl va badiiy shakl o'rtasida shartlilik deb ataluvchi oraliq hosil bo'ladi» [9, 31]. «Diskretik (lotin. discretus – (o'zb.) «bo'lingan, uzilib-uzilib turadigan», ya'ni tezligi o'zgarib (uzilib-uzilib) harakat qilib turuvchi vaqt kontinual (lotin. continuum – (o'zb.) «uzluksiz, uzoq davom etuvchi»), ya'ni tezligi uzluksiz, uzoq, davomli harakat qilib turuvchi vaqt bilan doimo bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatib, birgalikda harakat qiladi, ustiga ustak ko'p hollarda kontinual vaqt diskretik vaqtni o'ziga singdirib oladi [13, 166]. Zamonaviy romanlarda badiiy zamonning ikkala holati ham qo'lanilib, diskretiklik zamonning o'tmish yoki kelajakka yo'naltirilishi orqali namoyon bo'ladi. Muallif ijodiy niyatiga ko'ra, zamonlararo tasvirlarni berishda va tush, gallyusinatsiya natijasida makonlar almashinuviga imkoniyat yaratadi. Aslida Mo'yinqum cho'lida temir yo'l ko'prigi tagida hushsiz yotgan Avdiy gallyusinatsiya natijasida tungi Quddusning Hefsiman bog'larida murabbiyni izlab, sarson kezadi, uni Rossiyaning Oka daryosida bir xoli orolga olib ketishni istaydi, zolimlar qo'ldan Iso Masihni qutqarish uchun darbadar kezadi.

Adabiy shartlilik xususiyatlariga qarab badiiy zamon ham, badiiy makon ham aniq va mavhum bo'ladi. Bu ko'proq badiiy makonga daxldor. Aniq va mavhum makon bilan badiiy zamonning o'ziga xos xususiyati ham bog'liq. Bunday hollarda inson hayotining *zamondan tashqari va makondan tashqari universal qonuniyatlari o'zlashtiriladi*. Va aksincha: *makon aniqligi*, odatda, *zamon aniqligi bilan to'ldiriladi*. D.Lixachyovning ta'kidlashicha, bugungi kunda adabiyot «...olamning o'zgaruvchanlik hissi, zamon hissi bilan bog'liq. Zamon rang-barang ko'rinishlarga ega, zamondan badiiy vosita sifatida bir xil foydalanadigan ikki o'xshash yozuvchi yo'q. Bu adabiyotning asrlar davomida rivojlanish samarasidir» [11, 127].

Adabiyotda badiiy zamonning shakllari va ko'rinishlari rang-barang. Shartlilik tabiatiga ko'ra, *aniq* va *mavhum* zamoni ajratib ko'rsatiladi. Aniq zamon – bu muallif/hikoya qiluvchi tomonidan ko'rsatilgan yoki asarning tugal ma'no anglatuvchi parchasidan bilib olinadigan zamondir. Mavhum zamonning o'ziga xos xususiyati zamonga bog'liq bo'lmagan syujet va konflikt, abadiy obrazlar va abadiy qadriyatlar hisoblanadi. A.B.Yesin badiiy zamoni aniqlashtirish shakllariga, birinchidan, voqeani tarixiy orientirlar, sanalar, hodisalarga bog'lash», ikkinchidan, davriy zamoni belgilashni kiritadi [20, 248]. So'z san'atining makonga erkin murojaati natijasida aniq va mavhum makonlar tasviri yuzaga keladi. Zamonaviy romanlarda voqealar bir paytning o'zida turli joylarda sodir bo'lgan (bo'layotgan) voqealarni ko'rsatadi (masalan, «Qiyomat»da Avdiyning gallyusinatsiya ta'sirida ayrizamon va ayrimakonlarda harakatlanishi, «Qoraquyun» romanida hibsdan yotgan Ermanning xotiralari).

Xronotop qahramonning badiiy olamidagi qiyofasini ham ifodalaydi. Bu tasvir har doim mohiyatan xronotopikdir, chunki zamon va makon insonning real olam bilan munosabatlarining xarakterini belgilaydi. Jahon va o'zbek adabiyotshunosligida muayyan ijodkorlarning asarlari xronotop nuqtai nazaridan tahlil qilinib, M.Baxtin, D.Lixachev, V.Xalizev, A.Temirbolat, Z.Turaeva, N.Panasenko turli tasniflarni taklif qilishgan. Xronotopning diaxron aspektidagi asosiy shakllari M.M.Baxtin tomonidan aniqlangan: folklor, avantur, avantur-sarguzasht, avtobiografik, o'rta asrlar, rableona, idillik xronotoplari. D.Lixachev folklor xronotopini, Z.Turaeva, N.Panasenkolar esa badiiy zamon turlarini tasniflaganlar. V.Xalizev badiiy zamon va badiiy makon kategoriyalarini alohida ajratadi: «badiiy asarlarda cheksiz, xilma-xil va chuqur mazmunga ega zamon va makon tasvirlari bir-biriga singib ketgan. Bunda biografik (bolalik, yoshlik, yetuklik, qarilik), tarixiy (davrlar va avlodlar o'zgarishi xususiyatlari, jamiyat hayotidagi asosiy voqealar), kosmik (abadiylik g'oyasi va umumbashariy tarix), taqvim (fasllarning o'zgarishi, kundalik hayot va bayramlar), kundalik (kunduzi va kechasi, ertalab va kechqurun), shuningdek, harakat va sokinlik, o'tmish, hozir va kelajakning o'zaro bog'liqligi haqida tushunchalar mavjud. ...Adabiyotda badiiy makon tasvirlari ham xilma-xil: yopiq va ochiq, yer va samo, haqiqiy va xayoliy, yaqin va uzoq. Badiiy asarlarda zamon va makon ikki xil tarzda muhrlanadi. *Birinchidan*, ko'pincha ramziy xususiyatga ega bo'lgan va dunyoning u yoki bu tasvirini belgilaydigan motivlar va leymotivlar shaklida (asosan lirikada). *Ikkinchidan*, ular biz murojaat qiladigan syujetlarning asosini tashkil qiladi [19, 248].

O'.Nazarov badiiy asarda xronotopning qo'llanilish holatiga ko'ra quyidagicha tasniflaydi [12, 36]:

- 1) an'anaviy xronotop;
- 2) yonma-yon (parallel) xronotop;
- 3) sinkretik xronotop.

A.Temirbolat obyektiv va subyektiv yondashuvga ko'ra xronotopni quyidagi turlarga ajratadi: 1) ijtimoiy; 2) madaniy-tarixiy; 3) fantastik; 4) psixologik; 5) biologik; 6) fizik (astronomik); 7) mifopoetik. Shuningdek, olim insonning mohiyati, uning ichki olamini tushunish va borliq bilan munosabatiga ko'ra xronotopni uch sathga ajratgan: mikroolam, makroolam, megaolam xronotopi. Insoniyat taraqqiyoti va uning majudligi xronotopning uch sathi asosida izohlanadi. Bularning har biri o'ziga xos zamon va makon o'lchovlari bilan xarakterlanadi. *Birinchisi*, kosmik sayyoramizdan iborat. Bu galaktikalarning, osmon tizimlarining va yoritkich (yulduz)larining vaqt-makon harakatlarini o'zida mujassamlashtiradi. *Ikkinchisi*, insonning yer yuzidagi hayoti bilan bog'liq. Zamon va makon odamlarning real hayotida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni qamraydi. *Uchinchisi*, insonning ichki olamini ifoda etadi. Ushbu bosqichda xronotop kategoriyasi kishining hissiyot va qalb kechinmalarini xarakterlash uchun xizmat qiladi [17, 16-17].

MUHOKAMA

Megaolamda kechadigan o'zgarishlar bevosita makro va mikrolamga ta'sir qiladi. Megaolam xronotopining mohiyati mikroolam sezimlari orqali anglashiladi. Tasavvuf adabiyotida inson jismi koinotga o'xshatiladi. Inson bu, olami asg'ar – kichik olam bo'lsa, koinot esa olami akbar – katta olamdir [6].

Suvratingda – olami asg'ar o'zing,

Ma'ni ichra olami akbar o'zing [15].

Tasavvuf ta'limotiga oid mazkur g'oyalar bilan Arastu nazariyasi shu nuqtada tutashadi: «Muqarrar, inson koinotning bir bo'lafi (qismi) ekan va agar biz insonning maqsadini, faoliyatini, foydaliligini va butun borliqqa munosabatining darajasini aniqlamoqchi bo'lsak, avvalo, butun koinotdan kelib chiqadigan maqsadni bilib olishimiz zarur bo'lardi. Shunda bizga butun koinot maqsadi bo'lgan maqsadga erishishda shu koinotning bir bo'lafi bo'lishimiz zarurligi ravshan bo'lar edi. Odamga taalluqli narsani bilish uchun biz odamning maqsadini va insoniy barkamollik (nima ekanligi)ni bilishga intilishimiz zarur. Buning uchun biz butun koinotdan kelib chiquvchi maqsadni bilishga majbur bo'lamiz. Ammo bunga butun koinotni tashkil etgan barcha bo'laklarni va ularning asoslarini bilmay turib erishib bo'lmaydi» [5, 320].

Zamon va makonning madaniy-tarixiy modeli ostida madaniy va tarixiy jihatdan shartlangan va namunalarda mustahkamlangan shaxs ongida obyektiv zamon-makon munosabatlarini tasvirlashning o'ziga xos turini tushunamiz. Vaqt va makonning madaniy-tarixiy modeli tushunchasi shartli. Zamon va makonni ifodalashning cheksiz usullari mavjud, ammo tarixiy va madaniy tahlil natijalarini umumlashtirish orqali olimlar turlicha tasniflarni ishlab chiqishgan. Xronotop shakllariga oid yuqoridagi nazariy fikrlarga tayangan holda va tadqiqotimiz obyektiga mos ravishda quyidagicha tasnif qildik.

1-jadval

Xronotop shakllari

T/r	Xronotopning tasnifiy xarakteri	Xronotop turlari
1	Og'zaki va yozma adabiy tur va janrlar taqozosiga ko'ra	Folklor, mifologik, lirik, epik, dramatik, fantastik,
2	Qo'llanilish holatiga ko'ra	An'anaviy, parallel, sinkretik
3	Tarixiy haqiqatga ko'ra	Real (astronomik), tarixiy
4	Milliy mentalitetga ko'ra	Milliy, ijtimoiy, madaniy-tarixiy
5	Yozuvchi yoki qahramon hayot yo'lining yoritilishiga ko'ra	Biografik, avtobiografik
6	Insonning mohiyati, uning ichki olamini tushunish va borliq bilan munosabatiga ko'ra	Megaolam, makroolam, mikroolam
7	Badiiy psixologizmga ko'ra	Psixologik, biologik, tush
8	Makon nomi bilan bog'liq xronotoplar	Yo'l, dengiz, sahro, o'rmon, tog', g'or, shahar, ko'cha, saroy, qal'a, mehmonxona, ostona, choh, g'or
9	Aniq va mavhumlik darajasiga ko'ra	Aniq va mavhum
10	Xronotopning ochiq va yopiqlik holatiga ko'ra	Ochiq va yopiq

Xronotopning yuqoridagi shakllarini tadqiqot obyekti hisoblangan romanlarda kuzatish orqali quyidagi xronotop shakllari mavjudligini aniqladik. Shunga ko'ra xronotop shakllarini quyidagicha tasniflashga harakat qildik.

ADABIYOTSHUNOSLIK

1. *Real xronotop* – ijodkor tasvirlayotgan davrni xarakterlaydi, ya'ni asronomik zamon va geografik makon ifodasi aks etadi. Yozuvchi ijodiy maqsadiga ko'ra zamon va makon ko'lamini tanlaydi. Muallif asr, yil, oy, hafta, kun, soat, daqiqalarni aniq qo'llaydi, shuningdek, «ertalab», «kechki salqin», «kechasi» kabi so'zlarni ishlatadi. Asar voqealari ro'y bergan makon ham aniq ko'rsatiladi. Xronotopning bu shakli tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni ochib beradi. Bu, albatta, asar voqealarining hayotiyligi va ishonarliligini ta'minlaydi.

2. *Ijtimoiy xronotop* – shaxs va jamiyat munosabatlarini, qahramon ruhiyatini va buning vositasida jamiyatning mavjud holatini ifodalaydi. Ijtimoiy xronotop jamiyatning turli bo'g'inidagi insonlarning ongini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu kategoriya orqali asar qahramonlarining o'tmish, hozir, kelajakdagi ijtimoiy jarayonlar haqidagi mulohazalari ifodalanadi. Ijtimoiy voqelik, jamiyatdagi o'zgarishlar qanchalar shiddatli va keskin bo'lmasin qahramonning mustahkam irodasini bukolmasligi; ijtimoiy, ruhiy ziddiyatlar, davr talotumlari ostida qolgan shaxsning o'zi mansub zamon va makonning ijtimoiy, madaniy, ma'naviy maydonida toblanishi aynan ijtimoiy xronotopda namoyon bo'ladi.

2. *Psixologik xronotop* – qahramon qalbida kechayotgan evrilishlar, ruhiyatning kuchli va o'z jihatlarini butun murakkabligi bilan ifoda etadi. Xarakter dinamikasi aynan psixologik xronotop orqali anglashiladi. «Psixologik tasvir hamma vaqt tabiiylikni talab etadi. Xarakter, voqelik, xronotop, holat va vaziyat tabiiy uyg'unlashgandagina ruhiyat tasviri ishonarli chiqadi»[7, 54]. Ichki monolog, tush, konflikt, verbal va nonverbal holatlar asosida psixologik xronotop yuzaga chiqadi.

3. *Milliy xronotop* – xalqning milliy-madaniy xususiyatlari, azaliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va diniy qarashlarini aks ettiradi. Milliy ruh ifodasi badiiy asar ma'no sathining kengayishi va chuqurlashuviga zamin yaratadi. M.M.Xabutdinova yozuvchi milliy xotirani faqat o'z ona yurtida, ajdodlar va avlodlarning uzviy bog'liqligi tufayli saqlab qolish mumkinligini ta'kidlagan[18, 20]. Adabiyotshunoslar el va elatlar nafaqat turli xronotoplarda yashashi, balki uni idrok etish nuqtai nazaridan ham bir-biridan farq qilishini e'tirof etadilar. Turli xalqlar zamon va makonni turlicha talqin qiladilar, baholaydilar va o'lchaydilar. Romanda milliy xronotop tasviri folklor, mumtoz adabiyot namunalari, diniy-ma'rifiy manbalar orqali beriladi. Musulmon dunyosida badiiy zamoni namoz vaqtlari asosida ifodalanishi aksariyat o'zbek romanlarida uchraydi.

4. *Folklor xronotopi* – yozuvchi asarning g'oyaviy-badiiy ruhiga folklor an'analarini singdirishi, folklor syujetlarini qayta ijodiy ishlashi, folklor syujetlari va motivlarini o'zlashtirishi natijasida yuzaga keladi. Sinkretizm asosida zamon va makonlar inversiyasi yuzaga keladi. Zamonaviy romanchilikda folklorning ertak, afsona va rivoyat kabi janrlarini yoxud ularga xos ayrim motiv hamda obrazlarni stilizatsiya qilish asosida syujet yaratish badiiy priyomi ommalashdi. Folklor an'analaridan ijodiy foydalanish tamoyillari ayrimzamon va ayrimkon yondoshligini hamda xronotop tasvir ko'lamini kengaytiradi. Davrning dolzarb g'oyalarini ochib berishda folklorning afsona, rivoyat, ertak, doston singari epik janrlari syujeti, motiv va obrazlaridan foydalanish qulay ifoda vositasi sifatida xizmat qila boshladi. Folklor xronotopi sintez xarakteriga ega bo'ladi, chunki badiiy asardagi folklor unsurlari romanning barcha komponentlari bilan o'ta darajada uzviylashadiki, u asar zamon va makon ufqlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Folklor xronotopi ijodiy qayta ishlanish natijasida asarning tarkibiy qismiga aylanadi. Ch.Aytmatov bu hodisani shunday izohlagan: Xalq og'zaki ijodidan ehtiyoj bo'lsa, o'rni bilan asar mazmun-mohiyatiga mos kelsa, foydalanaman[14, 162-167]. Asarga mifni kiritish kerakmi-yo'qligini yozuvchining ichki tuyg'usi belgilaydi. Agar uni ko'r-ko'rona kiritaversa, mif asosiy g'oyaga hech bir aloqasi yo'q, keraksiz bir narsaga aylanadi. Menimcha, mifologizm hozirgi zamon prozasida alohida voqelikdir. Adabiyotshunoslik u bilan yanada jiddiyoq shug'ullanishi zarur [1].

5. *Fantastik xronotop* – xayoliy, mo'jizali, g'ayritabiiy zamon va makon tasviri asosida ilm-fan, texnikaning yutuqlari natijasida kelajakda kutiladigan xatardan ogoh qilish motivi badiiy ifodalanadi. Inson tasavvuridagi hayron qoldirarli xayoliy obrazlar va hodisalar, badiiy to'qima asosida yaratilgan ajoyibotlar olami badiiy asarda fantastik xronotop orqali tasvirlanadi. Fantastikaning alternativ tarix, kibberpank, turborealizm kabi ko'rinishlarida zamon va makon turlicha aks etgan. Alternativ tarixda voqea tutash olamda yoki vaqt bo'ylab sayohat tarzida kechadi, sodir bo'ladi. Unda fantastlar tarixdagi bo'lishi mumkin bo'lgan, lekin sodir bo'lmagan voqealarni tasvirlashni maqsad qilishadi. Kibberpankda kelajakni pessimistik ruhda tasvirlash ustun turadi. Insonni kompyuter bilan tutashib ketishiga alohida e'tibor beriladi. Turborealizm falsafiy-psixologik-intellektual fantastika sifatida qahramonning ruhiy olami g'ayritabiiy holatda ifodalanadi. Turborealizmning o'ziga xos tomonlaridan biri matn ostidagi ma'nodir[10, 23]. Fantastik xronotopda olam qonuniyatlari buzilgan, haqiqatda mavjud bo'lmagan, taxayyul kuchi bilan tasavvurdagina yaratilgan narsa-hodisalar tasviri keltiriladi hamda ular sodir bo'lmagan yoki sodir bo'lishi kutilayotgan bo'lishi mumkin. «Fantastika – hayotni yangicha, favqulodda nazar bilan ko'rishga

yordam beradigan majoziy shakldir. Asrimizda majoziy fikrlashga bo'lgan ehtiyoj odatdagi fantastika olamiga so'nggi yillar ilmiy-texnik kashfiyotlarning jadal kirib kelayotgani bilangina o'sib qolmadi, balki, to'g'rirog'i, iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, irqiy singari mudhish ziddiyatlarga yem bo'layotgan dunyomizning o'zi aql bovar qilmas majozlarga boydir»[2, 9].

6. *Xotiralar xronotopi* – qahramonlar boshidan kechirgan, uning o'tmishida ro'y bergan voqealarning xayolida qayta gavalantirish holati bo'lib, obraz ruhiyatidagi o'zgarish (quvonchli yoki qayg'uli onlarda inson o'z o'tmishini esga oladi – T.B.) natijasida yuz beradi. Xotiralar xronotopida zamon ortga qaytadi, asar voqealari retrospektiv syujet asosida quriladi. «Eslash usuli, bir tomondan, qahramonlar xatti-harakatida, faoliyatida yuz bergan barcha o'zgarishlarni izohlashga yo'l ochsa, ikkinchi tomondan, asardagi voqealar oqimini to'ldirishga va shu orqali romandagi makon va zamon (xronotop) chegarasini kengaytirishga yordam beradi»[7, 30]. Shunday asarlar bo'ladiki, xotiralar xronotopi asar kompozitsiyasini tashkil etadi, ya'ni asar to'lig'icha qahramon xotiralari zanjiridan iborat bo'ladi.

7. *Tush xronotopi* – qahramonlarning tushida yuz bergan voqealarning zamon va makonini ifodalaydi. Tush xronotopida qahramon ayrimayrim va ayrimayrim harakatlanadi. Folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov bu holatni quyidagicha talqin etgan: «Uyqu holatida makon va zamondan mutlaqo xalos bo'ladi, u o'z ichki dunyosi – o'z «Men»i ixtiyoriga o'tadi. Makon va zamon ushlab qololmaydi. «Men» shunchalik kengki, u o'zida barcha makonlarni, barcha zamonlarni mujassam etadi. Bu yerda uyg'oq paytdagi yashash uchun kurash mantiqi «o'ladi». U makon va zamon axloqidan, tartib-qoidasidan, qonunlaridan, yashash tarzidan, ta'qib va taqiq xavfidan butkul qutuladi, ya'ni butkul erkin bo'ladi. Uning zamon tartib-qoidasidan tarang bo'lgan aqliy zo'riqishlari barham topadi, aql «dam» oladi»[4, 36]. «Voqealar bayonining izchilligini ta'minlashga, asarning badiiy-estetik fazilatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Xususan, tushning asar qahramonlari ruhiy holatini yorqin tasvirlash va ichki olamini ochib berishdagi xizmati kattadir»[8, 17].

A.Temirbolat xronotop asarning axborot maydonini tarixiy, madaniy, falsafiy-estetik, diniy-mifologik va geografik kodlar orqali aniqlashtirishini tahlillar asosida izohlagan. Tarixiy kod muallif tasvirlayotgan davrni xarakterlaydi va yozuvchining asar xronotopi bo'yicha pozitsiyasini ko'rsatadi. Madaniy kod muallifning milliy fikrlash tarzi, jamiyat taraqqiyotining yo'nalishlari, qahramonlarning turmushi va ularning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini ochib beradi. Falsafiy-estetik kod yozuvchining g'oyalari, uning estetik ideallari va axloqiy-qadriyatlarga munosabatini ifodalaydi. Diniy-mifologik kod borliqning davriy va abadiyligi haqidagi g'oyani o'z ichiga oladi. Geografik kod asar badiiy xronotopi haqidagi ma'lumotlarni, ya'ni asar voqealari ro'y bergan aniq makon va vaqt orqali kitobxonni asar syujeti tanlangan makon va vaqt sari eltadi [16, 7]. Olimaning fikrlari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, xronotop poetikaning eng muhim kategoriyasi sifatida muallif tomonidan yaratilgan badiiy olam manzarasini bir butun holda idrok qilish imkonini beradi.

XULOSA

Xullas, xronotopning yettita shakli, ya'ni irreal, ijtimoiy, milliy, folklor, fantastik, tush, xotiralar xronotopi asarning xronotop tuzilmasida syujetni tashkil etish, xarakter yaratish, hikoya qilish vazifalarini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar xronotopning bir shakli (masalan, fantastik yoki milliy xronotop) asosida yozilishi mumkin. Ammo xronotopning turli shakllarining sintezi nisbatan ko'proq kuzatiladi. Ular bir xil darajada muhim bo'lishi yoki xronotopning bir shakli ustuvorlik kasb etishi hamda voqealar tasvirida asosiy o'rin egallashi mumkin. Bundan tashqari, muallif badiiy-estetik g'oyasining mohiyatini ochishda xronotop shakllarining uyg'unlashuvi kuzatiladi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

- 1.Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Augsburg, 2002. – 167 с. (*Bakhtin M.M. Problems of Dostoevsky's Poetics.*)
2. Каган М.С. Пространство и время в искусстве как проблема эстетической науки. // Ритм, пространство и время в литературе и искусстве: Сб./Отв. ред. Б.Ф. Егоров. – Ленинград: Наука, 1974. – 301 с. (*Kogan M.S. Space and time in art as a problem of aesthetic science*)
- 3.Qarshibaeva U. Fransuz romantizm prozasining poetik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri. ...diss. – Toshkent, 2016. – 166 b. (*Karshibaeva U. Poetic features of French romantic prose*)
- 4.Лихачёв Д.С. Историческая поэтика русской литературы: Смех как мировоззрение и др. работы. – СПб.: Алетейя, 1997. – 508 с. (*Likhachev D.S. History of the poetics of Russian literature. Laughter as a mindset and other works*)
5. Есин А. В. Время и пространство / Введение в литературоведение. Литературное произведение: основные понятия и термины: Учеб. пособие / Л.В. Чернец, В.Е. Хализев, С. Н. Бройтман и др. / Под ред. Л. В. Чернец. – М.: Выш. шк., 2002. – 369 с. (*Esin A.V. Time and space / Introduction to literary criticism. Literary work: basic concepts and terms*)

ADABIYOTSHUNOSLIK

6. Хализев В.Е. Теория литературы: учебник для студ. высш. учеб. заведений. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: Издательский центр «Академия», 2009. – 432 с. (*Khalizev V.E. Theory of Literature.*)
7. Nazarov O'. Romanda badiiy xronotopning o'ziga xosligi. Monografiya. – T.: Turon zamin ziyo, 2014. – 140 b. (Nazarov O'. The uniqueness of the artistic chronotope in the novel)
8. Темирболат А.Б. Категории хронотопа и темпорального ритма в литературе. Монография. – Казахстан: Алматы, 2009. – 499 с. (*Temirbolat A.V. Categories of chronotope and temporal rhythm in literature*)
9. Hazrat Mavlono Shayx Zulfiqar Ahmad Naqshbandiy hafizahulloh. Katta koinot va kichik koinot. [koinot. https://www.azon.uz/content/views/katta-koinot-va-kichik-koinot](https://www.azon.uz/content/views/katta-koinot-va-kichik-koinot) (*Hazrat Mawlana Sheikh Zulfiqar Ahmad Naqshbandi hafizahulloh. Big universe and small universe*)
10. Sayyid Ne'matulloh Ibrohim. Rumiyo. («Masnaviy ma'naviy» dan olingan shohbaytlarga nazmiy sharhlar). II qism. <http://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/> sayyid-nematulloh-ibrohim-rumiyo-02. (Sayyid Nematullah Ibrohim. Rumiyo. (Poetic commentary on the verses from the Masnavi))
11. Falsafatu Arastutolis. Arastu falsafasi. Urfon Otajon tarjimasil/ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b. (*Philosophy of Aristotle. Aristotle's philosophy. Translation by Urfon Otajon*)
12. Isaeva Sh. O'zbek tarixiy romanlarida xarakter ruhiyatini tasvirlash usullari: Fil.fan. nom. diss. – T., 2001. – 129 b. (*Isaeva Sh. Ways to describe the spirit of character in Uzbek historical novels*)
13. Хабутдинова М.М. Национальный хронотоп в творчестве А.Гилязова// Вестник ТГГПУ. 2010. №2(20) (*Khabutdinova M.M. National chronotope in the work of A. Gilyazov*)
14. Рзы Р. Как мы пишем. Ответы на анкету / Р. Рзы, В. Тендряков, Л. Кассиль, М. Стельмах, Ю. Нагибин, В. Розов, Г. Марков, Т. Ахтанов, В. Катаев, Ч. Айтматов, С. Залыгин, Г. Бакланов, Г. Березко // Вопросы литературы, 1962. – №8. – С. 162-177. (*Rzhi R. How we write. Answers to the questionnaire*)
15. Ko'chimov U. Fantastik asarlarda badiiy psixologizm konsepsiyasi (Rey Bredberi va Hojiakbar Shayxov ijodi misolida): Filol.fan.fals.d-ri. ...diss. – T., 2021. – 143 b. (Kochimov U. The concept of artistic psychology in science fiction (on the example of Ray Bradbury and Hojiakbar Shaykhov))
16. Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun. Muallifdan; Qiyomat: |Romanlar|/(Rus tilidan A. Rashidov, I. G'afurov tarj.: So'ng so'z G'. Salomovniki).— T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 560 b. (*Aitmatov Ch. The day lasts more than a hundred years. From the author; Doomsday: | Novels | / (Translated from the Russian by A. Rashidov, I. Gafurov: Then the word by G. Salomov)*)
17. Aytmatov Ch. Shunday bir adabiyot yarataylikki... Chingiz Aytmatov va Anvar Jo'raboev suhbatil/ <https://ziyouz.uz/suhbatlar/shunda-bir-adabiyot-yarata-likki-chingiz-a-tmatov-va-anvar-joraboev-suhbati-1987/> (*Aitmatov Ch. Let's create a literature... Interview with Chingiz Aitmatov and Anvar Juraboev*)
18. Eshonqulov J. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. –T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2011. – 286 b. (*Eshonkulov J. Dreams and their artistic interpretation in Uzbek folklore.*)
19. Istamova Sh. Badiiy asarlarda tushning poetik-kompozitsion vazifalari: Fil.fan.fals. d-ri. diss. – T., 2018. –142 b. (*Istamova Sh. The poetic-compositional functions of the dream in works of art*)
20. Темирболат А. Категория хронотопа в свете современных научных концепций литературоведения// международной заочной научной конференции «Филологические науки в России и за рубежом». – Санкт-Петербург, февраль 2012 г. – С. 6-10. (*Temirbolat A. The category of chronotope in the light of modern scientific conceptions of literary criticism*)

(Тақризчи: А.Сабиридинов – филология фанлари доктори)